

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 11 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА .....	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) .....	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО‘ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ .....	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О‘ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI .....	32-38
<i>Asadova Ra’no Baymanovna</i> О‘ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO‘TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI .....	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О‘ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY MANBALARI ...	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLIGIK YODGORLIGINING O‘RGANILISH TARIXI .....	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR .....	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg’unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIIY DAVR IQTISODIIY HAYOTINING AKS ETISHI .....	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР .....	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O‘ZBEKISTONDA QORAKO‘LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o‘g‘li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O‘RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) .....	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo‘latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI .....	81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*  
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ  
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ..... 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*  
ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА  
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ..... 94-99

### **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Tursunov Bekmuxammad Omonovich*  
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI  
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ..... 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*  
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQRILADIGAN  
MAHSULOTLARINING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI ..... 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*  
INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA  
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*  
КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ  
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*  
KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*  
MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING  
OF GOODS AND SERVICES ..... 143-152

*Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi*  
MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI  
TASNIFI ..... 153-160

*Sharipov Komil*  
MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ..... 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*  
MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI  
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ..... 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*  
SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN  
UZBEKISTAN..... 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*  
TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING  
TAHLILI ..... 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li*  
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH  
XUSUSIYATLARI ..... 197-202

<i>Рахимов Бахромжон Ибрахимович</i> ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ .....	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i> IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i> CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI .....	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i> INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHADAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI .....	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI .....	234-243
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOYIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI .....	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i> XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI.....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i> XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI .....	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i> FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY .....	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI .....	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i> ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION .....	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i> TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI .....	283-287

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Baxronova Dilrabo</i> PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ .....	288-295
<i>Daliyeva Madina</i> DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES .....	296-300
<i>Paluanova Khalifa</i> STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES .....	301-306
<i>Ravshanov Maxmud</i> СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО .....	307-311
<i>Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna</i> SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS .....	312-318
<i>Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI .....	319-322
<i>Gulamova Dilobar Imamkulovna</i> ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI .....	323-326
<i>Xolmuxamedov Baxtiyor</i> TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI .....	327-334
<i>Chorieva Iroda Kurbonboevna</i> KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI .....	335-339
<i>Ganiyeva Orzigul Hayriddinovna</i> XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI .....	340-345
<i>Rasulova Kamola</i> ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ .....	346-353
<i>Омонов Турғунбой</i> “СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ .....	354-358
<i>Хакбердиева Сайёра Фармоновна</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	359-364
<i>Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich</i> IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	365-370
<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i> CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" .....	371-376
<i>Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna</i> EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES .....	377-381

*Baymuradova Gulbahar Chari Qizi*

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI ..... 382-385

*Yuldasheva Nigora Bahodirovna*

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ..... 386-390

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ..... 391-396

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ruzmetov Xayruлла*

FUQAROLARNING ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ

КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ЎУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ..... 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ЎУҚУҚИЙ

МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ

РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ..... 403-410

*Abdubannayev Umidjon*

АХВОРОТГА ВО'ЛГАН ИНСОН НУҚУҚЛАРИНИ ТА'МИНЛАШНИНГ

РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ..... 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА

ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ..... 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*

ХОДИМЛАР МЕЎНАТ ЎУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА

ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли*

ТЕРГОВ ҚАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ

МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ..... 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*

ЎТМОЙ НАВФ ГУРУНГА КИРУВЧИ YOSHLAR O'RTASIDA НУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРГА

ҚАРШИ КУРАШИШ ВО'ҲИЧА ХОРИЖИЙ ТАЖРИВА ..... 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ

АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ..... 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ

АСПЕКТЫ ..... 452-462

*Ғайбуллаев Сохибжон Ғайбуллаевич*

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ..... 463-469

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI***Xusanova Mohira*

ОЛИЙ О'ҚУВ YURTLARIDA ТАЛАБАЛАРНИ ВАНОЛАШ ШАКЛИНИ

ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ .....	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH .....	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI .....	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV .....	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI .....	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI .....	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI .....	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELINI ..... 535-539	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELINI ..... 540-545	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY .....	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI .....	565-568

**Received:** 31 October 2024  
**Accepted:** 5 November 2024  
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

## **FOREIGN EXPERIENCE IN FIGHTING CRIME AMONG YOUNG PEOPLE AT SOCIAL RISK**

**Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna,**

Tashkent State Law University, Associate Professor , Ph.D. in philology

**Shayakubov Shomansur Shakabilovich,**

Tashkent State Law University, Associate Professor, Ph.D. in history

**Abstract.** This article provides information about the concept of youth belonging to the social risk group and its content, the origin of the term unorganized youth, comprehensive support for youth belonging to the social risk group and unorganized youth, attracting them to social life, realizing their dreams. The works being carried out in our republic and abroad for its development and future are described.

**Key words:** criminal police, juvenile, crime prevention, prevention work, National Council, public order, security police.

## **IJTIMOY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA**

**Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna,**

Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, f.f.n.

**Shayakubov Shomansur Shakabilovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti, dotsenti, t.f.n.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy havf guruhiga kiruvchi yoshlar tushunchasi va uning mazmuni haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, uyushmagan yoshlar atamasining kelib chiqishi, ijtimoiy havf guruhiga kiruvchi va uyushmagan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvatlash, ularni ijtimoiy hayotga tortish, orzularini ro'yobga chiqarish va kelajagi uchun respublikamizda va xorijda amalga oshirilayotgan ishlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** kriminal politsiya, o'smir, huquqbuzarliklar profilaktikasi, profilaktika ishlari, Milliy kengash, jamoat tartibi, xavfsizlik politsiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N66>

Bugun jahondagi murakkab va tez o'zgaruvchan globallashuv sharoitida yoshlar muammolarini hal qilish sohasidagi samarali davlat siyosatini amalga oshirish hamda unda qo'llaniladigan mexanizm va texnologiyalarni takomillashtirib borish nafaqat ijtimoiy barqarorlik balki, umuman, davlat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari,

2030 yilgacha mo'ljallangan "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlari bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023 yil 11 aprel kuni "Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar bajarilishi nuqtai nazaridan ushbu masalani tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan bir qatorda, sohada yechimini kutayotgan muammoli masalalar ham saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Xususan, aksariyat yoshlarda dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglash darajasining yetishmasligi, bu borada mamlakatimiz ma'naviyatiga mos bo'lgan fikrlar xilma-xilligi holatida yagona yondashuv, tushuncha va tasavvurlarning yetarlicha shakllanmagani terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, mutaasiblik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashish dolzarblashib bormoqda. Yoshlar o'rtasida uchrayotgan bu kabi salbiy holatlarni oldini olish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan profilaktik ishlar natijadorligini oshirish; mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yoshlarning faolligini oshirish, ularda islohotlarga dahldorlik tuyg'usini shakllantirish muhim sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi uchun yoshlar masalasi ichki va tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlardan birini tashkil etadi. Yurtimizdagi yaratuvchanlik, bunyodkorlik, xalqimiz uchun barcha sharoitlarni tubdan yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi ishlar va ularning samarali natijalariga qaramasdan, yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlar o'rtasida loqaydlik, jinoyatchilik, eng yomoni, o'z yurtini tashlab, baxtini boshqa yurtlardan izlab ketish kabi holatlar ko'plab uchramoqda. Bu narsa bizni ogohlikka, hushyorlikka chaqirishi, yoshlar masalasida hammamiz birgalikda bosh qotirib, yechimini tezroq topishimizni talab etmoqda. Biroq amaliy hayotda barcha yoshlar ham davlat e'tibori va jamiyat g'amxo'rliqi bilan qamrab olinmaganini ko'rish mumkin. Bu holat haqida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida shunday dedi: "...yurtimizdagi minglab yoshlar, ayniqsa, qishloq joylarda nafaqat "Kamolot"ning, ayni paytda davlat va jamiyatning e'tiboridan chetda qolmoqda. Ular bilan hech kim deyarli shug'ullanmayapti, ular o'z holiga tashlab qo'yilgan, desak, achchiq haqiqatni tan olgan bo'lamiz. Buning oqibatida uyushmagan, ya'ni ishlamaydigan, o'qimaydigan, tayin bir mashg'ulotga ega bo'lmagan, salbiy ta'sirlarga beriluvchi yoshlar soni ortib bormoqda" [1].

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining 64 foizini o'ttiz yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etib, mustaqillik yillarida bu qatlamning salmog'i 4 foizga ko'paydi. Markaziy Osiyodek geostrategik jihatdan murakkab bo'lgan mintaqada O'zbekistonning eng ko'p aholi soni bilan bolalar va yoshlar foizi katta mamlakat bo'lgani kelajak uchun siyosiy hamda demografik nuqtai nazardan muhim vazifalarni belgilab olishni taqozo etadi.

Bugun rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida tub islohotlarni amalga oshirayotgan O'zbekiston uchun ham yoshlar muammolarini hal qilish hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan yoshlarning davlat va jamiyat rivojining darajasini belgilaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan, strategik ahamiyatga ega muhim, ajralmas tarkibiy qismi sanalmish "uyushmagan yoshlar" masalasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil va tadqiq etish dolzarb sanaladi

[2, 192].

Voyaga yetmaganlar va ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha davlat va nodavlat subyektlar faoliyatini takomillashtirish xorijiy huquqni muhofaza qilish organlari tajribasini o'rganishni nazarda tutadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlar voyaga etmaganlar bilan profilaktika ishlarining turli shakllari va usullaridan juda samarali foydalanadilar.

AQShning Florida shtati huquq-tartibot idoralari tomonidan ishlab chiqilgan va aksariyat davlat va xususiy maktablarda amalga oshirilgan yuridik ta'lim dasturi diqqatga sazovor bo'lib, 7-8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dasturning asosiy vazifasi voyaga yetmaganlarni jamiyatda mavjud qadriyatlar tizimi, jinoyat qonunchiligi asoslari va fuqaroning majburiyatlari bilan tanishtirish, shuningdek, qonun va tartibni buzuvchilarni nima kutayotgani haqida tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Savol-javob formatidan foydalanib, dastur o'quvchilarni talon-taroj qilish, huquqbuzarlik, buzg'unchilik, hibsga olishga qarshilik ko'rsatish, noqonuniy qurol saqlash, do'konda o'g'irlik sodir qilish, o't qo'yish, spirtli ichimliklar, noqonuniy giyohvand moddalarni iste'mol qilish va qotillik kabi huquqbuzarliklar bilan bog'liq qonunlar bilan tanishtiradi. Alohida boblarda esa jinoiy faoliyatning oqibatlarini, shuningdek, jamiyatda ularning bajarilishini nazorat qiluvchi qonunlar va maxsus organlar bo'lishi zarurligi ko'rib chiqiladi.

O'quv materiali 135 betdan iborat darslikda o'z ifodasini topgan bo'lib, hatto o'qituvchilar uchun ham maxsus kitob ishlab chiqilgan. O'rganilayotgan har bir qonunni batafsil tushuntirish uchun maxsus taklif etilgan ichki ishlar xodimlari yordamidan keng foydalaniladi. Bu nafaqat o'rganilayotgan materialga qiziqishni oshiradi, balki kuchli ma'naviy omil bo'lin xizmat qiladi. O'quvchilar politsiya xodimlarini ularga hamdard bo'ladigan, ularning farovonligi haqida qayg'uradigan insonlar sifatida qarashga o'rganadilar [3, 18].

Los-Anjeles politsiya departamentida (AQSh) noodatiy eksperiment, ya'ni axloq tuzatish muassasalarida o'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha dasturining samaradorligi amalda sinovdan o'tkazib boriladi. Ushbu dasturning maqsadi hali jinoyat sodir etmagan, lekin jinoyatga moyilligi, giyohvandlik yoki g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari uchun ichki ishlar organlarida ro'yxatga olingan o'smirlarga psixologik ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.

Germaniyada politsiyaning voyaga etmaganlar jinoyatining oldini olish tajribasi ibratli sanaladi. Jumladan, Germaniyada voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish strategiyasi quyidagi qoidalarga asoslanadi: o'smirlarning noqonuniy xatti-harakatlarga moyilligi ko'p hollarda shaxs shakllanishi jarayoni tugagandan so'ng hech qanday tashqi ta'sirsiz yo'qoladi; davlat organlari tomonidan qattiq choralar ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

Shimoliy Reyn-Vestfaliyada giyohvand moddalar, bedarak yo'qolganlar va voyaga etmaganlar jinoyatlarini tergov qilish uchun barcha yirik politsiya bo'limlarida maxsus komissariatlar tashkil etilgan bo'lib, komissarlarga o'smirlarning ko'pincha jinoyatchi, jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida qatnashadigan holatlarini tahlil qilish topshirilgan. O'smirlar bilan ishlashni nazorat qilish va umumiy muvofiqlashtirish esa ichki ishlar bo'limi rahbariyati tomonidan amalga oshirib boriladi. Jinoyat politsiya bo'limining axborot tizimida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar bo'yicha maxsus ma'lumotlar bazasi yaratilgan bo'lib, unga kiritilgan ma'lumotlar asosida o'smirlar o'rtasida jinoyatchilik rivojlanishining sabablari va xarakterli xususiyatlari tahlil qilib boriladi. Bunday tadqiqotlar

natijalari ichki ishlar organlari xodimlarini o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlashda foydalaniladi [4, 24].

Baden-Vyurtembergda jinoiy politsiyaning jinoyatga qarshi kurashuvchi yirik boshqarmalarida voyaga etmagan jinoyatchilar uchun maxsus bo'limlar mavjud bo'lib, boshqa xizmatlarda xodimlar faqat voyaga etmaganlar jinoyati bilan shug'ullanadi. Maxsus bo'limlar va xodimlarning vazifasi voyaga etmaganlar nafaqat jinoyatchi, balki jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida harakat qiladigan barcha holatlarni tahlil qilishga qaratiladi.

Bavariyada politsiyaning voyaga etmagan huquqbuzarlar bilan ishni tashkil etishning yagona shakli mavjud emas, garchi Myunxen politsiyasida voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish borasida maxsus yo'naltirilgan xodimlar faoliyat olib boradi.

Bremen shtatida jinoyat va xavfsizlik politsiyasi doirasida voyaga etmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi maxsus xizmatlar mavjud. Ushbu xizmatlarning vazifalari aniq belgilangan bo'lib, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat sodir etilishining oldini olish bilan maxsus qo'riqlash politsiyasi xizmatlari shug'ullansa, bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni tergov qilish bilan politsiya shug'ullanadi.

Gamburg shahri politsiyasi voyaga etmagan jinoyatchilar bilan ishlashni tashkil etishda xuddi shunday tamoyildan foydalanadi. Uning yagona o'ziga xos jihati shundaki, yuqorida qayd etilganlar qatorida politsiya apparatida faqat o'smirlar va yoshlar tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik jinoyatlarini tergov qiluvchi maxsus xizmat faoliyat yuritadi.

Gessen politsiya tuzilmasida voyaga etmaganlar jinoyati bilan shug'ullanuvchi uchun maxsus xizmatlar mavjud emas. Bu erda asosiy e'tibor komissariyatlar tarkibida o'smirlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni tahlil qilish bilan shug'ullanadigan maxsus politsiya xodimlarini tayyorlash va ulardan foydalanishga qaratilgan. Kelgusi yillarda bu borada maxsus surishtiruv guruhlar va komissarliklarni tashkil etish rejalashtirilgan.

Quyi Saksoniyada politsiya balog'atga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik holatlari bilan bog'liq ishlarni ko'rishda boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Bunday hamkorlik politsiyaning vazifalari va tegishli ijtimoiy xizmatlarning mas'uliyati o'rtasidagi aniq farqni nazarda tutadi. Shu maqsadda politsiyaning yer bo'limi va ayrim ichki ishlar bo'limlarida voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarlik bilan bog'liq masalalarni hal etish bo'yicha yangi komissar lavozimi joriy etildi. Shunga o'xshash tuzilmalar Reynland-Pfalz hududida ham faoliyat yuritadi.

Saar hududida o'smir jinoyatchilar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tgan ayol politsiyachilardan foydalanish hali ham amalda. 1978 yildan hozirgi kungacha Kyoln politsiyasida yoshlar bilan ishlash bo'limi mavjud bo'lib, uning politsiya xodimlari maktablar bilan aloqa o'rnatish va o'quvchilar o'rtasida profilaktika ishlarini olib borishga qaratilgan.

Berlinda voyaga etmagan huquqbuzarlar bilan ishlashni tashkil etishning ancha yuqori darajasiga erishildi. O'smirlar bilan ishlash uchun ichki ishlar bo'limi tarkibida bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi barcha xabar va bayonnomalar, shuningdek, bedarak yo'qolgan voyaga etmaganlar to'g'risidagi arizalar bo'yicha chora ko'radigan maxsus komissariyat tashkil etilgan. Komissarlik xodimlari nafaqat bu holatlarni tekshiradi, balki profilaktika ishlarini ham olib boradi. Evropaning boshqa mamlakatlaridagi politsiya faoliyati tajribasi ham juda qiziq sanaladi.

1971 yilda Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi barcha politsiya boshliqlariga o'z politsiya bo'linmalarida jamoatchilikni jalb qilish bo'limlarini yaratishni tavsiya qilgan

sirkulyar xat yubordi. Bunday bo'limlar xodimlari ichki ishlar organlarining 2 foizini tashkil qilishi kerak edi. Ushbu bo'limlarning boshqa ichki ishlar organlari xodimlariga ham tegishli bo'lgan umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi: jamoatchilik va ota-onalarni bolalarning xulq-atvori va tarbiyasini nazorat qilishga jalb qilish; yoshlar, ijarachilar uyushmalari, cherkovlar va boshqa tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish; maktablarda suhbatlar o'tkazish: voyaga etmaganlar va boshqa shaxslar bilan ichki ishlar organlarining vazifalari haqida tushuntirish ishlarini olib borish, ularning faoliyati bilan tanishtirish; ichki ishlar organlari xodimlarini tanlash, yoshlarni ichki ishlar organlariga ishlashga jalb etish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga jamoatchilik va voyaga yetmaganlarni jalb qilish bo'yicha "maxsus politsiya bo'linmalari" faoliyatini yo'lga qo'yishdir [5, 11].

Fransiya politsiya departamenti prefekturalarida bolalar va o'smirlar jinoyatlarining oldini olish va barcha ijtimoiy profilaktika xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun bo'linmalar tashkil etilgan bo'lib, ular politsiya prefekti va milliy jandarmeriya kuchlari nazorati ostida faoliyat ilob boradi. 1982 yil may oyida Fransiya Bosh vaziri Per Mauroy tashabbusi bilan shaharlarda xavfsizlikni ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish uchun komissiya tuzildi. Komissiya tarkibiga turli siyosiy partiyalar (jumladan, muxolif partiyalar) vakillari bo'lgan merlar kiritildi [6, 175].

Komissiya mahalliy hokimiyat bilan birgalikda 1983-yil yanvar oyida xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha 70 dan ortiq takliflar tayyorladi va Fransiya Respublikasi Vazirlar Kengashiga kiritdi. Ular orasida shahardan ta'tilga chiqmagan yoshlarning yozgi bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha "Yoz-yoshlik" va "Ta'til" nomli tadbirlarni alohida ta'kidlash mumkin. Shu maqsadda mavjud va yangi tashkil etilgan yoshlar oromgohlarida o'qituvchi mutaxassislar yordamida tegishli psixologik-pedagogik tayyorgarlikdan o'tgan Fransiya politsiyasi mobil qo'shinlari CRS – Respublika xavfsizlik korpusining maxsus saralangan xodimlari va instruktorlar faoliyat olib boradilar.

1982 yildan boshlab bunday tadbirlarning tizimli ravishda amalga oshirilishi yoshlar orasida "mayda jinoyatlar" toifasiga kiruvchi jinoyatchilik darajasini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi. 1983 yil iyun oyida Fransiya Bosh vazirining farmoni bilan jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha Milliy kengash tuzildi. Mazkur farmon qoidalariga ko'ra, Huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha Milliy kengash tarkibiga Bosh vazir farmoni bilan tayinlangan 68 nafar a'zo kiritilgan bo'lib, ulardan 5 nafar deputat (3 nafar quyi palata deputati va 2 nafar senator) 3 yil muddatga, 35 nafar hokim va 28 nafar mansabdor shaxslar profilaktika tadbirlarini o'tkazishdan manfaatdor bo'lgan turli tashkilotlar vakili etib tayinlangan. Bundan tashqari, yuqoridagi farmonda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha idoraviy va kommunal kengashlarni tashkil etish nazarda tutilgan. Hozirda Fransiyada 400 dan ortiq shunday kengashlar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ushbu kengashlar ishida, xususan, keksalarni himoya qilish, yoshlar bilan ishlash bo'yicha maxsus komissiyalarda ko'plab politsiya xizmatlari vakillari ishtirok etadilar [7, 121].

Xorijda voyaga etmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan funktsional jihatdan ixtisoslashtirilgan sub'ektlar faoliyati amaliyotini tahlil qilish ushbu ishning uchta asosiy yo'nalishini aniqlash imkonini beradi: birinchi yo'nalish – voyaga yetmaganlar o'rtasidagi adliya organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yaratish, yangi ijtimoiy texnologiyalarni, ijtimoiy-huquqiy tuzilmalarni va nodavlat tuzilmalarni joriy etish zarurligini ko'rsatdi, hamda, G'arbning ko'p sonli davlatlarida ushbu tajriba ancha vaqt oldin

joriy qilingan va ko'p yillar davomida mavjud bo'lgan, vaqt davomida nafaqat hayotiyligini, balki mutlaq zarurligini ham isbotladi; ikkinchi yo'nalish voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish tizimida asosiy tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydigan, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi adliyaning o'zagi bo'lgan ixtisoslashtirilgan sudlarni tashkil etish bilan bog'liq; uchinchi yo'nalish – maxsus profilaktika sub'ektlarini, shu jumladan politsiya organlari tuzilmasini shakllantirish va ularga gumanistik funktsiyalarni yuklashdan iboratdir.

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda hududlarga xizmat safarlari uyushtirish, joylarda ma'naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor, notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo'lgan yoki profilaktik ro'yxatda turadigan yoshlar bilan bevosita uchrashish, safarlar davomida ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, so'rovnomalar olish, orqali qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish, tadqiqot natijalari asosida uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu amalga oshiriladigan tadbirlar yoshlarning mentalitetimizga qarshi turli xil yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishini oldini olishga qaratilgan tizimli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashishda yoshlar ishtirokini kuchaytirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor, notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil yoki profilaktik ro'yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ish olib 445oorish tizimi takomillashtirilishiga hissa qo'shiladi. Uyushmagan va tarbiyasida muammo bo'lgan yoshlar muammolari yechilishiga qaratilgan chora-tadbirlar ularning kelajakka va o'ziga ishonchi ortishiga xizmat qiladi. So'rovnomalar orqali hududlarda yoshlar orasida mavjud bo'lgan dolzarb muammolar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Muammosi bor yoshlar tarbiyasi "Vatan taraqqiyotiga xizmat qilish va sodiq bo'lish" g'oyasi singdirilishiga ko'maklashiladi. Ular o'rtasida shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg'un tutishga doir keng ko'lamli tarbiyaviy yondoshuvga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, yuksak axloqiy fazilatlariga ega, yurt sha'ni, or-nomusi uchun kurasha olishga qodir, ma'naviy immuniteti mustahkam, mehnatsevar, e'tiqodi kuchli shaxs shakllanishiga xizmat qiladi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. Internet manzil: [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Giyasov S. Uyushmagan yoshlarning tarkibi tushunchasi va mazmuni. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 01(2022) / ISSN 2181-1415.
3. Шайденко Н.А. Зарубежный опыт борьбы с правонарушениями несовершеннолетних / Н. А. Шайденко. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 17.1 (76.1). — С. 18-19. — URL: <https://moluch.ru/archive/76/13014/> (дата обращения: 11.08.2024).
4. Касамара В.А., Сорокина А.А. Политическое сознание подростков: благополучные школьники и дети улиц // Полис. – 2009. – №6. – С. 68.
5. Yoshlar-kelajak bunyodkori" shiori ostidagi "Uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimi samaradorligini oshirish: muammo va istiqbollar" mavzusidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. Maqolalar to'plami. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – B. 27.
6. Акимова Л.В. Зарубежный опыт решения проблем «Уличных детей» // Педагогика и образование. Берегиня, 777. Сова, 2010. №5 (7).

7. Маланцева О. Стратегии работы с детьми улиц: зарубежный опыт // Социальная педагогика. 5/2009.
8. Бечки, Ш. Молодежь и помощь несовершеннолетним в США / Ш.Бечки. – М.: Наука, 1991. – 193 с.
9. Боденко, Б.Н. Социальное обслуживание и социальная работа за рубежом / Б.Н. Боденко, В.Б. Корняк, А.Н. Панов. – М.: Форма, 1999. – 392 с.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).